



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



SAMARQAND – 2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha
prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abdusalam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – DSc, professor
(O‘zbekiston);

Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas’ul muharrir: **PhD, dotsent Zokir
BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**
(O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – DSc, профессор
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир
БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ
(Узбекистан)**



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAĞLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara İSLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY TILLAR VA ADABIYOT TADQIQOTLARI TARIXI

Muhabbat KURBANOVA, Sevara RAHMATOVA

SHE’RIYATDA TIL BIRLIKLARI TAKRORI VA KONNOTATSIYA 8

Saparbek MIRZABAEV

QARAQALPAQ ESSE TEKSTLERINDE TENEWLERDİN STILLIK ÖZGESHELIKLERI.. 16

Faruk TOPRAK

SEMERKAND ÜZERİNE SÖYLENMİŞ BAZI ARAPÇA ŞİİRLER..... 24

Rohila RUZMANOVA

TÜRKÇENİN OKUTULMASIYLA İLGİLİ GÖRÜŞLER 32

Emrah YILMAZ

1926’DAN 2026’YA TÜRKOLOJİ’NİN ASIRLIK İRADESİ..... 38

SHOKIROV Raxmatulla, TOXIROVA Sarvinoz

SADRIDDIN AYNİY VA TURKIY ADABIYOT: MA’RIFATPARVARLIK VA UYG‘UNLIK-
NING MADANIY KO‘PRIGI 53

ESHMAMATOVA Mahliyo

TURKIY TILLAR PARALLEL KORPUSINI YARATISHDA TIL VA NUTQ BIRLIKLARI
TADQIQI..... 65

Dilorom MUMINOVA

TURKIY ADABIYOTDA G‘AZAL JANRI RIVOJIDA NOMALARNING O‘RNI..... 73

XUSHBOQOV Qobilbek

SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE’RIYATIDA FONETIK TAKRORLAR 79

DUSMURATOV Qahramon

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI 87

BOYMIRZAYEV Akbarali, NAZIROV Salimbek

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BARQAROR BIRIKMALARNING PARALLEL
LUG‘ATINI TUZISH MASALALARI 92

ATABAYEVA Guljahon

HAYKU JANRI VA UNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI 98

ERNAZAROV Rahmon, MAVLONOV Ahmadjon

OQ VA QORA LEKSEMASI TAHLILI 105

ЧОРИЕВ Баходир

ВОКАТИВНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ КАК СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ
СОСТОЯНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.П. ЧЕХОВА И А. КАХХАРА..... 112

DJUMAMURATOV Kuanishbay

FRAZEOLOGIK BIRLIK LARNING TURLI TIZIMLI TILLARDA NAMOYON BO‘LISHI-
NING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 116

MUXAMMADIYEV Nodir

QASHQADARYO SHEVASIGA XOS O‘ZLASHMALAR TAHLILI 122

Zokir BAYNAZAROV, Zarifa XUSANOVA

TINISH BELGILAR TARIXI VA ULARNING YOZMA MATNLARDA QO‘LLANILISH
XUSUSIYATLARI..... 126

TURKIY XALQLARNING IJTIMOY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Rustam BERDIYEV

MARKAZIY OSIYODA KIDAN VA QORAXITOYLAR DAVRI TARIXIDAN 141

Normahammad XOLMATOV, Zarifa XOLMATOVA, Rufat KARIMOV

ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTINING ILK KURTAKLARI (ZARAFSHON VOHASI)
..... 149

Odil ERGASHEV

O‘ZBEKISTONNING TOSH DAVRI USTAXONALARI 157

Mirolim BERDIQULOV

JANUBIY O‘ZBEKISTON TO‘DA-1 NEOLIT DAVRI MAKONI..... 163

Sunnatillo RASHIDOV

KARMANA HUDUDINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI 170

Ulug‘bek UMAROV

TAQINCHOQLAR - IJTIMOY TENGSIZLIK KO‘RSATKICHI 177

Saydazim AMONOV

KESH VOHASINING O‘RTA ASRLAR RUSTOQLARI 183

Anvar UMAROV

TURKMANLARNING JOYLASHISHI TARIXI (ZARAFSHON VODIYSI MISOLIDA).... 188

AZIZ MUSHTARIY!

Bu sonda turkologiya, tarix, tilshunoslik va adabiyot sohalaridagi original tadqiqotlar o‘rin olgan. She‘riyatdagi til birliklarining takrori va ma‘nodoshligi, Samarqand haqidagi arab she‘rlari va tinish belgilarining tarixiy rivojlanishi tadqiq qilinadi; turkiy ta‘lim va til ta‘limiga oid tanqidiy qarashlar, turkologiya fanining 1926-2026 yillardagi asriy iroda va taraqqiyot jarayoni o‘quvchilarimiz e‘tiboriga havola etiladi. Sadreddin Ayniyning adabiyotdagi o‘rni kabi mavzular muhokama qilinadi. Nomalarning g‘azal janridagi o‘rni, Shafaoat Rahmatulloh Termiziyning fonetik takrorlari, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanining ko‘p tarmoqli talqinlari ham o‘quvchiga taqdim etilgan. Bundan tashqari, turk shevalarining parallel korpus tadqiqotlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi barqaror birikmalarning parallel lug‘ati, hayku janrining o‘zbek adabiyotiga ta‘siri baholanadi. Tarix va arxeologiya sohasida Kiden va Qoraxitoy tarixi, ishlab chiqarish xo‘jaligining dastlabki bosqichlari, O‘zbekistondagi tosh davri ustaxonasi, Karmanadagi arxeologik tadqiqotlar, Kesh vohasining o‘rta asr xarobalari va turkmanlarning manzilgohlari tarixiga oid yangi topilmalar o‘rtoqlashmoqda. Jurnalimizning ushbu sonidagi tadqiqotlar turkologiya va unga aloqador fanlar bo‘yicha yangi izlanishlarga ilhom beradi, degan umiddamiz...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

This issue includes original research in the fields of Turkology, history, linguistics and literature. While the repetition and connotation of language units in poetry, Arabic poems on Samarkand and the historical development of punctuation marks are examined; critical views on the teaching of Turkish and language education, and the century-long will and development process in the field of Turkology from 1926 to 2026 are presented to the attention of our readers. Topics such as the place of Sadreddin Ayni in literature are discussed. The role of nomos in the ghazal genre, the phonetic repetitions of Shafaoat Rahmetullah Termizi and multidisciplinary interpretations of Iqbol Mirzo's novel "Bonu" are also presented to the reader. In addition, parallel corpus studies of Turkish dialects, a parallel dictionary of permanent elements in English and Uzbek languages, and the effects of the Haiku genre in Uzbek literature are evaluated. In the field of history and archaeology, new findings are shared on the history of Kiden and Karahitay, the early stages of production economy, the stone age workshop in Uzbekistan, the archaeological research in Karmana, the medieval ruins of the Kesh oasis and the settlement history of the Turkmens. We hope that the studies in this issue of our journal will inspire new research in Turkology and related disciplines...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Bu sayımızda, Türkoloji, tarih, dil bilimi ve edebiyat alanlarında özgün araştırmalar yer almaktadır. Şiirde dil birimlerinin tekrarı ve çağırışımı, Semerkant üzerine Arapça şiirler ve noktalama işaretlerinin tarihi gelişimi incelenirken; Türkçenin okutulması ve dil eğitimine ilişkin eleştirisel görüşler ile 1926'dan 2026'ya uzanan Türkoloji alanındaki asırlık irade ve gelişim süreci okuyucularımızın ilgisine sunulmaktadır. Sadreddin Ayni'nin edebiyattaki yeri gibi konular ele alınmaktadır. Gazel türünde namelerin rolü, Şafaoat Rahmetullah Termizi'nin fonetik tekrarları ve Iqbol Mirzo'nun "Bonu" romanına yönelik multidisipliner yorumlar da okuyucuya sunulmaktadır. Ayrıca, Türk lehçelerinin paralel korpus çalışmaları, İngiliz ve Özbek dillerindeki daimi unsurların paralel sözlüğü ile Özbek edebiyatında Haiku türünün etkileri değerlendirilmiştir. Tarih ve arkeoloji alanında ise Kiden ve Karahitaylılar tarihi, üretim iktisadının ilk aşamaları, Özbekistan'daki taş devri atölyesi, Karmana arkeolojik araştırmaları, Keş vahasının Orta Çağ kalıntıları ve Türkmenlerin yerleşim tarihi üzerine yeni bulgular paylaşılmaktadır. Dergimizin bu sayısında yer alan çalışmaların, Türkoloji ve ilgili disiplinlerde yeni araştırmalara ilham kaynağı olmasını temenni ederiz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В этом выпуске представлены оригинальные исследования в области тюркологии, истории, лингвистики и литературы. В данном номере рассматриваются повтор и синонимия языковых единиц, исследуются арабские стихи о Самарканде и историческое развитие знаков препинания; вниманию наших читателей представлены критические взгляды на преподавание турецкого языка и языковое образование, а также вековой процесс развития в области тюркологии с 1926 по 2026 год. Обсуждаются такие темы, как место Садреддина Айна в литературе. Рассмотрены роль наме в развитии жанра газель, фонетические повторы Шафоата Рахметуллы Термизи и всесторонние интерпретации романа Икбола Мирзо «Бону». Также оцениваются параллельные корпусные исследования турецких диалектов, параллельный словарь устойчивых словосочетаний в английском и узбекском языках и влияние жанра хайку на узбекскую литературу. В области истории и археологии авторы делятся новыми открытиями по истории Кидена и Каракитая, исследованиями ранних этапов производительной экономики, мастерской палеолита в Узбекистане, археологическими исследованиями в Кармане, находками средневековых руин оазиса Кеш и истории поселений туркмен. Мы очень надеемся, что включённые в данный выпуск журнала исследования вдохновят вас на новые изыскания в тюркологии и смежных дисциплинах...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

SADRIDDIN AYNİY VA TURKIY ADABIYOT: MA'RIFATPARVARLIK VA UYG'UNLIKNING MADANIY KO'PRIGI

SHOKIROV Raxmatulla Shavkat o'g'li,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Turkologiya
ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi (Samarqand, O'zbekiston)

E-mail: rahmatulla.com@gmail.com

 ORCID: 0009-0003-7936-3102

TOXIROVA Sarvinoz Xusenovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti kafedrası dotsenti

E-mail: tokhirovasarvinoz29@gmail.com

 ORCID: 0009-0002-1462-6728

 DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15761416>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sadriddin Ayniy ijodining o'zbek, tojik va boshqa turkiy xalqlar adabiyotiga qo'shgan hissasi, jadidchilik harakatidagi faoliyati hamda ikki tilli (zullisonayn) yozuvchi sifatida ilmiy merosining ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Ayniyning asarlari orqali ilgari surilgan ilm-ma'rifatga intilish, ijtimoiy adolat, milliy uyg'onish g'oyalari, uning o'zbek-tojik adabiy aloqalarini mustahkamlashdagi xizmatlari va turkiy dunyo bilan madaniy ko'prik vazifasini bajarganligi ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, Turkiya ilmiy-adabiy muhitida Ayniy merosining tadqiq etilishi ham ko'rib chiqiladi. Ayniy ijodining turk adabiyotidagi mushtarakligi, uning G'arb va Sharq g'oyalari bilan uyg'unligi va hozirgi kun uchun dolzarbligi qayd etiladi. Shu jihatdan maqola filologiya, tarix, madaniyatshunoslik sohalari tadqiqotchilari uchun qimmatli manba bo'lib, ayni paytda uning xulosalari bugungi adabiyot va ilm-fan rivoji uchun muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Sadriddin Ayniy, jadidchilik, zullisonayn (ikki tilli yozuvchi), o'zbek-tojik adabiy aloqalari, Ayniy va turkiy adabiyot, ma'rifatparvarlik, madaniy ko'prik, milliy uyg'onish, adabiy meros.*

SADRİDDİN AYNÎ VE TÜRK EDEBİYATI: MAARİFÇİLİK VE UYUMLULUĞUN KÜLTÜREL KÖPRÜSÜ

Özet: Bu makalede Sadriddin Aynî'nin Özbek, Tacik ve diğer Türk halkları edebiyatına yaptığı katkılar, Cedidcilik hareketindeki etkinliği ve çift dilli (züllisaneyn) bir yazar olarak bilimsel mirasının önemi derinlemesine analiz edilmektedir. Aynî'nin eserlerinde öne çıkan ilim ve irfana yöneliş, toplumsal adalet ve millî uyanış gibi fikirler; onun Özbek-Tacik edebî ilişkilerini güçlendirmedeki hizmetleri ve Türk dünyasıyla kurduğu kültürel köprü işlevi bilimsel temelde ele alınmaktadır. Ayrıca, Türkiye'deki akademik ve edebî çevrelerde Aynî'nin mirasının nasıl incelenip araştırıldığı da değerlendirilmiştir. Aynî'nin Türk edebiyatı ile olan ortak yönleri, Doğu ve Batı düşünce sistemleriyle kurduğu uyum ve günümüzdeki güncelliği özellikle vurgulanmaktadır. Bu yönüyle makale, filoloji, tarih ve kültürel çalışmalar alanlarında çalışan araştırmacılar için kıymetli bir kaynak olup, sonuçları itibarıyla çağdaş edebiyat ve bilim dünyası açısından da önemli pratik bir değere sahiptir.

Anahtar kelimeler: *Sadriddin Aynî, Cedidcilik, Züllisaneyn (çift dilli yazar), Özbek-Tacik edebî ilişkileri, Aynî ve Türk edebiyatı, Maarifçilik, Kültürel köprü, Milli uyanış, Edebi miras.*

SADRIDDIN AYNI AND TURKIC LITERATURE: A CULTURAL BRIDGE OF ENLIGHTENMENT AND HARMONY

Abstract: This article thoroughly analyzes the contributions of Sadriiddin Ayni to Uzbek, Tajik, and Turkic literature, his active role in the Jadid movement, and his significance as a bilingual (zullisonayn) writer. It scientifically explores Ayni's ideas on education, social justice, and national awakening, highlighting his efforts to strengthen Uzbek-Tajik literary ties and serve as a cultural bridge within the Turkic world. The study also examines Ayni's literary heritage within contemporary Turkish academic circles. It underscores the commonalities between Ayni's works and Turkish literature, his integration of Eastern and Western ideas, and his ongoing relevance today. The article serves as an invaluable resource for researchers in philology, history, and cultural studies, emphasizing that its conclusions hold significant practical implications for current literary and scholarly development.

Key words: *Sadriiddin Ayni, Jadidism, Zullisonayn (bilingual writer), Uzbek-Tajik literary relations, Ayni and Turkic literature, Enlightenment, Cultural bridge, National awakening, Literary heritage.*

Kirish. Sadriiddin Ayniy (1878–1954) – o‘zining serqirra ijodi va ma’rifatparvarlik faoliyati bilan nafaqat tojik adabiyoti, balki o‘zbek milliy adabiyotining rivojlanishida ham beqiyos hissa qo‘shgan buyuk adib, olim va jamoat arbobidir. Ayniy Buxoro amirligi hududidagi G‘ijduvon tumanining Soktare qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, yoshligidan ilm olishga qiziqqan va Buxorodagi mashhur madrasalarda tahsil olgan. Shu bois u sharqona ta’lim an’analarini chuqur egallagan, zamon ma’rifatini yuksak qadrlagan ijodkor sifatida tanilgan.

Sadriiddin Ayniy nafaqat o‘zbek va tojik adabiyotining yirik namoyandasi, balki Markaziy Osiyo ma’naviy-ma’rifiy hayotida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir hamda jadidchilik harakatining ilg‘or vakilidir. Shu sababdan ham uning ijodi dunyoning turli davlatlarida, hatto Yevropada ham katta qiziqish bilan o‘rganiladi [Toxirova, 2022: 276-280].

Ayniy dastlab o‘zining adabiy faoliyatini she’rlar yozish bilan boshlab, “Guli surx” (1897) asarida o‘zining nozik badiiy didini namoyon etgan. Shu bilan birga, uning “Tarbiyat us-sibiyon” (1909) asari yangi usuldagi maktablar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib, ma’rifatparvarlik g‘oyalarni targ‘ib qilgan.

U o‘zining serqirra ijodi, fidokorona o‘qituvchilik faoliyati, publitsistik mahorati va ilmiy izlanishlari orqali o‘z zamonasining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan. Ayniyni asarlarida ilgari surilgan ilm-ma’rifatga intilish, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy tenglik va adolatga erishish kabi g‘oyalar nafaqat o‘zbek va tojik xalqi uchun muhim ahamiyat kasb etgan, balki turk adabiyotidagi modernistik islohotlar bilan hamohang bo‘lgan. Bu esa turkiy xalqlar o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Ayniyni ijodi, ta’bir joiz bo‘lsa, bu ikki xalqning zamonaviy adabiyoti va madaniyatni bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tab (mumtoz adabiyotda bu vazifani Alisher Navoiy bajargan), turkiy dunyo vakillari o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish va fikr almashishga ko‘maklashdi. Uning asarlari bugungi kunda ham yangi avlodlarni ilhomlantirib, donolik manbayi bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda. Ayniy o‘zining teran fikrlari, xalqchil tili va hayotiy kuzatuvlari bilan o‘quvchilar qalbidan joy olgan. Uning qalamiga mansub har bir asar o‘zbek va tojik xalqlarining tarixi, madaniyati va urf-odatlariga bag‘ishlangan qimmatli manba hisoblanadi. Negaki Ayniy o‘z asarlarida o‘sha davr jamiyatidagi ijtimoiy muammolarni, adolatsizlikni va qashshoqlikni mohirona tasvirlab bergan. Uning bu asarlari o‘quvchilarni o‘z huquqlari uchun

kurashishga va adolatni tiklashga undagan. Shu bois Ayniyning merosi nafaqat tilshunos va adabiyotshunoslar, balki tarixchilar, faylasuflar va sotsiologlar uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning hayoti va ijodi yosh avlod uchun ibrat namunasi bo‘lib qoladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati diniy xurofotlar, savodsizlik, qoloqlik va mustamlakachilik illatlariga qarshi qaratilgan keng qamrovli ma’rifatparvarlik oqimi edi. Jadidlar yangi usul maktablarini ochib, matbuot va adabiyot qudrati orqali xalqni uyg‘otishga, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga intildilar. Ular ilg‘or ilm-fan, texnika, san’at va ayniqsa, ayollar huquqlarini ilgari surdilar hamda jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga harakat qildilar. Bu bilan jadidlar jamiyatni isloh qilish, uning dunyoqarashini o‘zgartirish va taraqqiyotga erishishni maqsad qilgan edilar.

Sadriddin Ayniyning jadidlik faoliyati. Sadriddin Ayniy o‘zbek va tojik adabiyotida muhim shaxs bo‘lib, uning ijodi jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniy yangi usul maktablarini tashkil etish, ma’rifatparvarlik ruhida asarlar yozish, teatr tomoshalarini tashkil etish va ijtimoiy tenglikni targ‘ib qilish orqali jadidchilik harakatining faoli hamda yetakchi namoyandasi sifatida ko‘zga tashlandi. U maktablar ochib, o‘quvchilarni o‘qitishdan tashqari, o‘zi yozgan darsliklar orqali ham ta’lim-tarbiya ishlariga katta hissa qo‘shdi. Uning “Odina”, “Eski maktab”, “Maktab”, “Savodi asbob” kabi asarlarida eski tuzumni tanqid qilinib, zamonaviy ta’lim, ilm-ma’rifat, inson huquqlari, milliy qadriyatlar va adolat ulug‘lanadi. Ayniy o‘z asarlari orqali xalqni jaholatdan qutqarishga, ularni ilm-ma’rifatga chorlashga, milliy o‘zlikni anglatgan holda zamonaviy dunyo bilan hamnafas qilishga intildi. U faqatgina yozuvchi emas, balki o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etishga intilgan oz sonli kishilardan ham edi.

Ayniy asarlari, ayniqsa, 1917-yilgi inqilobdan keyingi davrda xalqning og‘ir turmushini, ularning ma’naviy uyg‘onishini aks ettirishga qaratilgan. “Oktabr inqilobi”, “Ozodlik qo‘shig‘i”, “Birinchi may” kabi inqilobiy ruhdagi asarlari orqali mehnatkash xalqning kurash va uyg‘onish ruhini yuksaltirgan va ayni damda, ular orasida ushbu davr g‘oyalarini yanada targ‘ib qilgan. Bir tomondan, Ayniy shu orqali adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib bergan bo‘lsa, boshqa tarafdin esa bu o‘sha davr yozuvchilari oldida turgan davr g‘oyalari targ‘iboti bilan bog‘liq edi.

Ayniyning o‘rta asr qiyinchiliklari va amir – zo‘ravonlar zulmini fosh etgan “Buxoro jallodlari” (1922) asari uning ma’rifatparvarlik va haqiqatparvarlik yo‘lidagi qat’iyatini namoyish etadi. Adibning xalqqa o‘zligini anglashga xizmat qilgan “Odina” (1927) asarida esa, mehnatkash xalqning og‘ir hayoti va ularning kurashi tasvirlangan.

Yana bir narsani aytib o‘tish kerakki, Sadriddin Ayniyning publitsistik va ilmiy-ijodiy merosi orqali biz, yurtimiz tarixini anglashimiz, uni zamonaviy ilmiy tafakkur bilan tahlil qilishga bo‘lgan ulkan hissasini ham ko‘rishimiz mumkin. Ayniy tarixiy voqealarni tasvirlaganda, nafaqat ularni qayd etuvchi muarrix sifatida, balki ularni chuqur ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘lab tahlil etuvchi ziyoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniyning Turkiston iqtisodiy salohiyati, ilm-fan, texnika va ma’rifat rivojiga e’tibori, ayniqsa, “Turkiston boyligi” maqolasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda u yer osti boyliklarining ekspluatatsiyasi, sanoatning yo‘lga qo‘yilishi va milliy iqtisodiy mustaqillikka erishish g‘oyalarini ilgari suradi [Ayniy, 1917].

Ko‘plab tadqiqotchilar S.Ayniyning Turkiston jadidchilik harakatining faol arbobi sifatida ko‘rishadi. Uning Mahmudxo‘ja Behbudiya bag‘ishlangan maqolalari bu ikki siymo o‘rtasidagi fikriy va ma’rifiy yaqinlikni ko‘rsatadi. Ayniy Behbudiyni zamonasi uchun milliy uyg‘onish ramzi sifatida tasvirlab, uning iqtisodiy mustahkamlik, xalqparvarlik va diniy-ma’rifiy soflik borasidagi qarashlarini keng yoritadi [Ayniy, 1922].

Ayniy o‘z maqolalarida faqat tarixiy manbalarni emas, balki o‘z davrining dolzarb muammolarini ham ilgari suradi: iqtisodiy qaramlik, ma’rifatsizlik, sanoatning orqada qolishi, tarixiy yodgorliklarning yemirilishi – bularning barchasiga chuqur munosabat bildiradi. Ayniy turkiy adabiyot bilan uzviy bog‘langan adib sifatida Alisher Navoiy an’analari davom ettirgan holda, o‘zbek tilida maqolalar yozgan, ularning ba’zilarini jadid matbuotida e’lon qilgan, xususan “Turk eli”, “Zarafshon” va “Maorif va o‘qituvchi” kabi nashrlar orqali o‘zbek adabiy jamoatchiligiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu jihatdan u ikki tilli – **zullisonayn** yozuvchi sifatida nafaqat tojik, balki turkiy (xususan o‘zbek) adabiyot taraqqiyotiga bevosita xizmat qilgan, o‘zbek va tojik madaniy uyg‘unligining timsoliga aylangan. Bu boradagi qarashlarni yan quyida davom ettiramiz.

Sadriddin Ayniy va o‘zbek adabiyoti, uning o‘zaro madaniy aloqalardagi o‘rni. Sadriddin Ayniy tojik va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan adiblardandir. Uning asarlari ikki xalqning umumiy tarixiy ildizlari va ma’naviy merosiga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, Ayniy o‘zbek adabiyoti rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek olimlari tomonidan bu mavzu atroflicha o‘rnilgan. Xususan, M.Qo‘shjonov¹, B.Valixo‘jayev², M.Qo‘chqorova³ singari olimlarning o‘zbek adabiyotshunosligida Sadriddin Ayniy asarlari badiiyati haqidagi, S.Yatimov⁴, M.Davronova⁵, R.Jumayev⁶, Sh.Hasanov⁷, A.Xasanov⁸, D.Davronov, Y.Nurova⁹, S.Tohirova¹⁰ va F.Temirov¹¹ kabi olim va tadqiqotchilar tomonidan yozuvchi asarlari tilini o‘rganilishi ham Sadriddin Ayniy ijodlarining keng o‘rganiganligi va o‘rganilayotganligini ko‘rsatadi [Xasanov, 2024: 30–37].

Bu o‘rinda biz yuqoridagi olimlarning o‘ranishlariga qo‘shimcha ravishda ayrim jihatlariga qisqacha to‘xtalishni lozim topdik. Ayniyning o‘zbek adabiy merosi bo‘yicha izlanishlarini alohida qayd etib o‘tish lozim. U o‘zining “Namunai adabiyoti tojik” (Tojik adabiyotining namunalari) asarida o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalari haqida ham ma’lumot bergan. Jumladan, Mir Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy, G‘afur G‘ulom kabi adiblarning hayoti va ijodini to‘liq o‘rgangan. Ayniy ularning asarlarini nafaqat o‘zbek, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari adabiy merosining umumiy boyligi sifatida ko‘rsatdi.

Ayniy Mashrab haqida shunday yozadi: “Mashrabi Namangoniy – ismi Boborahim. Ulamolar fatvosi va Mahmudbiy Qatag‘on hukmi bilan hijriy 1123-yilda Qunduzda shahid bo‘ldi.

¹ Кўшхонов М. Айний бадииятининг эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1988.

² Valixo‘jayev B. S.Ayniy she‘riyati poetikasining salohiyati. // S.Ayniy she‘rlaridagi an‘ana, ijodiylik va badiiylik muammolari. Xalqaro anjuman materiallari. – Buxoro, 2004. – B. 5.

³ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/urta-Osiyo-xalqlarining-balzagi/>

⁴ <https://qadriyat.com/2021/08/19/сўз-олий-хазратлари-хакида/>

⁵ Давронова М. Садриддин Айний асарларида фразеологик бирикмалар бадий тасвирнинг муҳим воситаси. // Хорижий филология. 2019. № 3.; Давронова М. Садриддин Айнийнинг “Бухоро манғития амирлари тарихи” асарида тарихий сўзларнинг қўлланилиши. // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2019/1 (73); Давронова М. Садриддин Айний асарларида фразеологик бириклар бадий тасвирнинг муҳим воситаси. // Хорижий филология. 2019. № 3. – В. 89–93.

⁶ Жумаев Р.Х. Садриддин Айний асарларидаги арабча топонимлар. // Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. 10/4. 2022.

⁷ <https://zarnews.uz/post/sadriddin-ayniy-haqida-bilmaganlarimiz-ayon-bo-lmoqda>

⁸ Xasanov A. I.3. O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida Sadriddin Ayniy asarlarining o‘rganilishi. // Sadriddin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili. Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. – Samarqand, 2024. – 140 b.

⁹ Davronov D., Nurova Y. Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asarida hisob so‘zlar. // Globe edit. 2021. – B. 124.

¹⁰ Tohirova S. Sadriddin Ayniy avtobiografik asarlarining Yevropadagi tadqiqi. Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. 2022. – 165 b.

¹¹ Temirov F. Mustaqillik yillarida Sadriddin Ayniy ilmiy-badiiy merosining o‘rganilishi. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023. № 2. – B. 18-22.

Mashrabning turkiy devoni bor...” [Ayniy, 2010: 126]. Bu jumla adibning o‘zbek adabiyotini chuqur o‘rganganidan dalolat beradi.

Ayniyning Mir Alisher Navoiy va Muqimiy haqidagi asarlarini alohida aytib o‘tish kerak. Ayniy 1943-yilda “Муқимӣ ва давраи ӯ” (Muqimiy va uning davri) asarini yozib, Muqimiyning ijodiy merosi va u yashagan davr adabiy muhitini tahlil qilgan. Bu asar o‘zbek adabiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Ayniy 1948-yilda “Mir Alisher Navoiy” risolasini yozib, buyuk shoirning hayoti va ijodini keng yoritgan. Ushbu risolada Navoiy ijodining estetik va g‘oyaviy jihatlari hamda uning fors-tojik adabiyoti bilan aloqalari chuqur tahlil qilingan. Ayniy 1940-yilda Navoiyning mashhur “Xamsa” asarini o‘zbek tilida nashr ettirgan va unga keng muqaddima yozgan. Bu muqaddimada u Navoiy “Xamsa”sining o‘zbek adabiyotidagi ahamiyatini yuksak baholab, uning xalq ma’naviy hayotini boyitishga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlagan. Shuningdek, Sadriddin Ayniy tojik tilida “Alisher Navoiy” monografiyasini yaratish barobarida “Xamsa”ning qisqartirilgan nashrini tayyorlagan. Bu o‘zbek adabiyoti uchun katta yangilik edi [Xasanov, 2024: 32].

Ayniyning o‘zbek adabiyotiga shaxsiy xizmatlari ham talaygina. Ayniy faqat o‘zbek adabiyotini tadqiq qilish bilan cheklanib qolmagan. U o‘zining asarlari va nutqlarida o‘zbek adiblarining asarlarini baholab, ularni yangi avlodga yetkazishga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, u o‘z asarlarida Alisher Navoiy, Muqimiy, Mashrab va boshqa o‘zbek adiblarining asarlarini namunalar sifatida keltirib, o‘zbek adabiyotining rivojida ularning rolini yuksak baholagan. Bundan tashqari, Ayniy Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy va G‘afur G‘ulom bilan yaqindan ijodiy aloqada bo‘lib, ularning ijodini rag‘batlantirishga yordam bergan. Shu bilan birga, Ayniy o‘zbek tilini chuqur bilganligi va ikki tilda – tojikcha va o‘zbekcha asarlar yozganligi tufayli o‘zbek adabiyotini o‘zining shaxsiy madaniy merosi sifatida qabul qilgan.

Ayniy va o‘zbek adabiyoti haqida maqolalar yozgan ko‘plab olimlar uning o‘z asarlarida o‘zbek va tojik xalqlarining do‘stligini alohida ulug‘laganligini e’tirof etishadi [Рахмонзода, 2018: 139]. U Mir Alisher Navoiy va Mavlono Jomiy o‘rtasidagi do‘stlikni o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi abadiy-madaniy hamkorlik ramzi sifatida ko‘rsatadi. Shu bois Ayniy ijodi o‘zbek va tojik adabiyotining o‘zaro boyishida muhim ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Turkiy adabiyot muhiti bilan g‘oyaviy yaqinlik. XX asr boshlarida turkiy xalqlar orasida madaniy-ma’naviy uyg‘unlik kuchaydi. Istanbul, Boku, Qozon, Toshkent, Buxoro kabi shaharlardagi ziyolilarning fikriy almashinuvi Ayniy ijodiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda turkiy xalqlar adiblari o‘rtasida o‘zaro asarlar tarjima qilish, adabiy anjumanlar o‘tkazish va fikr almashish keng tus oldi. Ayniyning “Odina” hikoyasi Turkiyadagi Rashot Nuri Guntekinning “Choli qushi” romani bilan, “Esdaliklar” kitobi esa Yakup Kadri Karaosmanog‘lu asarlari bilan g‘oyaviy jihatdan qiyoslanishi mumkin. Ushbu asarlarning har ikkalasida ham jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, qashshoqlik, jaholat va milliy qadriyatlarning inqirozga uchrashi muammolari ko‘tarilgan. Bu esa turkiy xalqlar adabiyotining mushtarakligidan dalolat beradi.

Turkiyalik olim va tadqiqotchilar tomonidan ham Ayniyning asarlariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy maqolalarni uchratish mumkin. Bu maqolalarga quyida batafsil to‘xtalamiz. Tilga olganimiz, izlanishlarda Sadriddin Ayniy 20-asrning Markaziy Osiyo madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan adib, olim va tarixchi sifatida o‘zbek hamda tojik xalqlari adabiyoti va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shganligi e’tirof etiladi [Şafak, 2023].

Turk tilidagi Sadriddin Ayniyga bag‘ishlangan boshqa bir maqolada esa “Sadriddin Ayniy adabiyotshunoslik, tarixshunoslik sohalarida asar yaratgan hamda she’r, roman va hikoyalar yozgan sermahsul yozuvchi va tadqiqotchidir” deya tilga olinadi [Olimov, 2021].

Ayniy asarlarida, ayniqsa, turkiy xalqlar bilan aloqadorlik va umumturkiy qadriyatlar bilan uyg'unlik ham aks ettirilgan. Shu jihatdan uning ijodi turkiy xalqlar adabiy merosi va ijtimoiy hayoti bilan o'zaro boyishning muhim ko'prigi bo'lib xizmat qilgan. Ayniy yashagan davrda Turkiston xalqlari bir-biriga yaqin madaniy aloqada bo'lib, ijtimoiy birdamlik va umumiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan edi. Ayniy ham bu umumturkiy ma'naviy muhitdan ilhomlanib, o'z asarlarida o'zbek, turk va tojik xalqlarining dard-u tashvishlarini umumiy ma'naviy rishtalar bilan bog'lashga intilgan.

Masalan, uning “Bolalar yo'ldoshi” (1919) va “Qiz bola yoki Xolida” (1924) kabi o'zbek tilida yozilgan asarlari bu ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, o'zbek yosh o'quvchilari uchun yozilgan bu asarlar yoshlarning madaniy o'ziga xosligini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Ayniy o'z davrida bu asarlarni yaratish orqali o'zbek bolalarining ruhiy dunyosini yuksaltirish va ularga ma'rifatparvarlik g'oyalarini yetkazishga hissa qo'shgan [jadidlar.uz].

Ayniy asarlarida turkiy xalqlarning turmush tarzi, ularning orzu-umidlari va tarixiy kurashlari keng o'rin olgan. Ayniyni “Buxoro jallodlari” va “Esdaliklar” kabi asarlari ham umumturkiy qadriyatlarni va o'zbek-tojik xalq hayotining umumiy hamda tarixiy tafsilotlarini aks ettiradi. Ayniy ijodida o'zbek va tojik xalqlari hayotini uyg'un ifodalashning turkiy adabiyotdagi an'anaviy uslublari, masalan, xalq og'zaki ijodidagi hikoyalar va afsonalar aniq ko'rinadi.

Ayniy o'zining yirik asarlarida milliy uyg'unish g'oyalarini ilgari surish barobarida turkiy xalqlarning kurash ruhi va birligini ham yuksak baholaydi. Uning “Qullar” romanida xalqning tarixiy kurashi asosiy mavzu sifatida ilgari surilishi, aynan turkiy xalqlarning umumiy kurash tajribalariga o'xshashdir. Adib bu asarlari bilan o'z davrining turkiy adabiy an'analari va modern uslublarni uyg'unlashtirishga erishdi. Ayniyni “Odina”, “Eski maktab”, “Esdaliklar” kabi asarlari o'zbek va tojik adabiyotiga yangi nafas olib kelgan bo'lsa, ayni paytda turk ziyolilarining ham mehrini qozongan. Ayniyni sodda va xalq tiliga yaqin yozuv uslubi Turkiya adabiyotidagi realizm yo'nalishiga mos keladi. Uning asarlarida xalq og'zaki ijodiga asoslangan yondashuvlar va hayotiy kuzatishlar o'z aksini topgan. Bugungi kunda Sadridin Ayniy merosi nafaqat adabiy, balki madaniy va ma'naviy jihatdan ham turkiy xalqlar orasidagi aloqalarni mustahkamlashga, ular o'rtasida umumiy qadriyatlar va g'oyalarni tarqatishga xizmat qilmoqda. Ayniyni asarlari hozir ham o'qilib, turk dunyosining o'ziga xos adabiy xazinasini sifatida qadrlanmoqda. Ayniqsa, ma'rifatparvarlik, adolat va ijtimoiy tenglik kabi g'oyalarni ilgari surgani uchun uning ijodi zamonaviy adabiyot va jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Uning asarlaridagi ijtimoiy va ma'naviy mazmun Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida birdamlik, hamjihatlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Ayniy asarlarida faqat milliy qadriyatlar emas, balki turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosiga hurmat va do'stlik ham aks etadi. Bir qarashda davr mafkurasi targ'ibotigaga bag'ishlanganday tuyilgan “Oktabr inqilobi”, “Ozodlik qo'shig'i” kabi inqilobiy she'rlar, o'zida yuqorida tilga olingan g'oyalarni ham mujjasmalashtiradi. Ayniy she'rlari orqali o'z davrida turkiy xalqlar orasida uyg'unlik va madaniy aloqalarni mustahkamlashga chaqirdi. Adib ijodida turkiy xalqlar tilidagi mushohada va badiiy obrazlar uyg'unligi mavjud bo'lib, bu uning umumturkiy ruh bilan uyg'un bo'lishini ta'minlagan. Shuningdek, adib tanqidiy maqolalarida turkiy xalqlar bilan hamkorlikni e'tirof etgan. Ayniyni hayoti va faoliyati, masalan, o'zbek tilida yaratilgan asarlari, aynan shu uyg'unlikning hayotiy ifodasidir. Bu esa uning o'zbek adabiyotini ham boyitganligini ko'rsatadi.

Ayniy ijodining Turkiyada o‘rganilishi va e’tirof etilishi. Sadriddin Ayniyning serqirra va rang-barang ijodi nafaqat o‘zbek va tojik adabiyoti xazinasiga qo‘shilgan bebaho durdona, balki turk adabiyoti maydonida ham o‘zining munosib o‘rni topgan va keng e’tirofga sazovor bo‘lgan. Bu e’tirofning yorqin dalillari sifatida Ayniy asarlarining ko‘plab turk olimlari va tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi, uning asarlarining Turkiyadagi mashhur nashriyotlarda nashr etilishi hamda turli ilmiy jurnallarda uning ijodiga bag‘ishlangan maqolalarning chop etilishini keltirish mumkin. Quyida ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

Turgay Şafakning “Modern Tacik edebiyatının kurucusu Sadreddin Aynî: Hayatı, Eserleri ve Düşüncesi” (Zamonaviy tojik adabiyotining asoschisi Sadriddin Ayniy: hayoti, asarlari va fikrlari) nomli maqolasi zamonaviy tojik adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lgan Sadriddin Ayniyning hayoti, asarlari va ilmiy-ma’rifiy faoliyatini chuqur o‘rgangan tadqiqotdir. Maqolada Ayniy hayoti Buxorodagi diniy muhit va madrasalarda boshlangani, u Mir Arab madrasasi hamda boshqa mashhur ta’lim maskanlarida tahsil olib, ma’rifiy jarayonlarga faol qo‘shilgani yoritilgan. Ayniy asr boshida shakllangan jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri sifatida tanilib, yangi maktablar ochilishi va ularga o‘quv qo‘llanmalar yozilishi jarayonida faol ishtirok etgani ta’kidlangan.

Maqola, ayniqsa, Ayniyning G‘arb va Sharq zamonaviy g‘oyalarini kuzatib borishi, xususan, Ismail Gaspiralining “Tercüman” gazetasi orqali modern fikrlar bilan tanishganini ta’kidlaydi. Ayniy o‘z asarlarida tarix, adabiyot, tarjimai hol, esdalik va she’riyat janrlarini birdek rivojlantirib, tojik adabiyotining o‘ziga xos mustaqil yo‘nalishga ega ekanligini ilmiy asosda isbotlashga intilgan. Shuningdek, uning asarlari tojik va o‘zbek adabiy merosi o‘rtasidagi umumiylik va do‘stlik ruhini ulug‘lash bilan ajralib turishi ta’kidlangan.

Tadqiqotda 20 ga yaqin manbalar tahlil qilinib, Ayniyning asarlari mazmuniga ko‘ra tasniflanadi hamda ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, ma’rifat va adabiy jarayonlar bilan bevosita aloqadorligi ko‘rsatib beriladi. Ayniy asarlari nafaqat tojik, balki o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyotining rivojlanishida ham muhim o‘rin tutgani alohida e’tirof etilgan. Shu bilan birga, maqola Ayniyning ikki xalqning adabiy merosini uyg‘unlashtirishdagi xizmatlarini ham ilmiy asosda yoritadi.

Umuman olganda, maqola Sadriddin Ayniyning adabiy merosini yangi nazariy qarashlar asosida baholab, uning O‘rta Osiyo xalqlari madaniy va adabiy boyliklarini rivojlantirishdagi buyuk hissasini ta’kidlaydi. Shu jihatdan, maqola nafaqat Ayniyning shaxsiy ijodini, balki turkiy va tojik xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar tarixini ham boyituvchi manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi [Şafak, 2023: 1-19].

Yana bir tadqiqotchi Mehmet Ali Özkan fors tilida Azita Hamadoniy va Huseynipur Masud tominidan Eronda yozilgan ilmiy maqolani turkchaga tarjima qilgan. Ushbu maqolada Mehmet Ali Özkaning fikrlari aks etmasa-da, tarjima qilingan ushbu yirik maqola Ayniy hayoti va ijodini Turkiya ilm ahliga yaqindan tanitishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki maqolada Ayniy hayoti va ijodining qariyb barcha tafsilotlari ochib berilgan.

Maqola “Sadreddin Aynî’nin Hayatı ve Eserlerine Bir Bakış (Sadriddin Ayniy hayoti va asarlariga bir nazar)” deb nomlanadi va Ayniyni 20-asrning yirik adibi, tarixchi, tilshunos va tanqidchisi sifatida e’tirof etib, uning hayoti va ijodiy faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Maqolada Ayniyning Markaziy Osiyodagi adabiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga qo‘shgan hissasi, uning asarlarida aks etgan g‘oyalar va fikrlar, shuningdek, uning erkinlik va sadoqat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga bo‘lgan yondashuvi yoritilgan.

Maqolada Ayniy zamonaviy tojik adabiyotining asoschilaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlari, xususan, “Esdaliklar” va “Buxoro jallodlari” adibning birinchi fikriy uslubiga mansub ekanligi (Asosan jadidchilik g’oyalari nazarda tutilmoqda – R.Sh.) ta’kidlanadi hamda erkinlik va sadoqat o’rtasidagi murakkabliklarni aks ettirishi aytib o’tiladi. 1917-yilgi Rossiya Oktyabr inqilobidan keyin Ayniy romanlar, she’rlar va maqolalar orqali o’zining ikkinchi fikriy uslubini (Kommunistik g’oyalar targ’iboti nazarda tutilmoqda – R.Sh.) rivojlantirganligi ta’kidlanadi.

Maqolada Ayniy asarlarida Rossiya sotsializmining o’ziga xos talqini va uning Eron adabiy jamoasidagi o’rni ham tahlil qilinadi. Uning tanqidiy qarashlari va adabiyotdagi yondashuvlari, ayniqsa, Eron va Markaziy Osiyo adabiyotlari o’rtasidagi aloqalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu maqolada biroz bahsli va ayni zamonda Ayni davri siyosatining talablaridan kelib chiqqan ziyolilar chekiga tushgan ayrim g’oyaviy majburiyatlarga oid tanqidiy jihatlar ham ko’zga tashladi.

Umuman olganda, maqola Sadridin Ayniyning hayoti va ijodini keng qamrovli tarzda tahlil qilib, uning Markaziy Osiyo adabiyoti va madaniyatiga qo’shgan ulkan hissasini yoritadi. Bu tadqiqot Turkiyada Ayniy shaxsiyati va asarlarining zamonaviy adabiyotdagi o’rnini chuqur anglashga yordam beradi, desak mubolag’a bo’lmaydi [Mehmet Ali Özkan, 2024: 130-156].

Boshqa maqola Turkiyadagi Hoji Bayram Vali universiteti doktoranti Shoxruxbek Olimov tomonidan yozilgan. Ushbu maqola “Züllisaneyn (Ikki Dilli) Yozar: Sadreddin Ayniy” (Zullisonayn (Ikki tilli) yozuvchi: Sadridin Ayniy) deb nomlangan bo’lib, muallifining boshqa ilmiy maqolalari qatori Markaziy Osiyo adabiy merosi, Turkiston jadidchiligi va ikki tilli yozuvchilik an’analari qamrab oladi. U maqolada aynan ikki tilli yozuvchi (zullisonayn) sifatida mashhur bo’lgan Sadridin Ayniyning ijodiy faoliyatini tahlil qilishga e’tibor qaratgan.

Sh.Olimovning ta’kidlashicha, “Zullisonayn” tushunchasi turkiy va forsiy adabiyotlarda ko’pincha Alisher Navoiyga nisbatan ishlatilgan bo’lsa-da, XX asrda yashagan Sadridin Ayniy ham aynan shu maqomga to’la mos keladi. Chunki Ayniyning o’zbek va tojik tillarida yozgan roman, hikoya va tarixiy asarlari uning ikki madaniyat orasidagi adabiy ko’prik vazifasini bajarganini ko’rsatadi.

Shoxruxbek Olimov maqolada Ayniy ijodining umumiy xususiyatlarini tahlil qilib, uning jadidchilik ruhidagi asarlarining ahamiyatini, ayniqsa, Buxoro amirligining inqirozi va Sovet davrida yozgan asarlarini keng yoritadi. Shuningdek, Sh.Olimov Ayniyning asarlari orqali o’zbek va tojik adabiy muhitlari o’rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo’shgan hissasini alohida ta’kidlaydi [Olimov, MAMER, 2021].

Umuman olganda, Shoxruxbek Olimovning bu maqolasi o’zining ilmiy yondashuvi va tarixiy-adabiy asoslangan tahlili bilan ajralib turadi. Tadqiqotchi Ayniy merosini ikki tilli yozuvchilik va jadidchilikning muhim namoyandasi sifatida baholash orqali uning o’zbek-tojik madaniy aloqalarini rivojlantirishdagi beqiyos o’rnini ochib beradi.

Tadqiqotda Ayniyning Buxoro amirligi davridagi ijtimoiy va siyosiy o’zgarishlarga munosabati, uning jadidchilik harakatidagi faol ishtiroki va ikki tilda (o’zbek, tojik) ijod qilish orqali madaniy boylar yaratgani tahlil qilingan. Ushbu maqolada Ayniyning bolalik va yoshlik yillari Buxoroda qanday og’ir sharoitda kechganidan tortib, ilm olish bilan birga turli yumushlar bilan shug’ullanganligi, aynan shu muhitda jadidchilik g’oyalari bilan tanishib, ma’rifatparvarlik faoliyatiga kirishgani haqida ham mufassal ma’lumotlar keltiriladi. Ayniy o’z asarlarida turli janrlarni sinab ko’rgan, she’rdan boshlab hikoya, roman va tarixiy asarlargacha bo’lgan yo’nalishlarda ijod qilgani ham maqolada alohida ta’kidlangan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Ayniy ikki tilli yozuvchi – zullisonayn sifatida o‘zining adabiy faoliyatida tojik va o‘zbek tillarida asarlar yozib, ikki xalqning madaniy merosini boyitgan. Ayniy o‘z asarlarida jadidchilik ruhini ifodalash bilan birga, o‘z davrining og‘riqli muammolarini realistik ruhda yoritgan. Masalan, “Buxoro jallodlari”, “Qullar” kabi asarlarining tahlili orqali maqola uning tanqidiy realizmga asoslangan ijod uslubini asoslab beradi.

Maqolada Ayniyning tarjimaiyoli holi chuqur tahlil qilinib, u bolalik va yoshlik davridagi og‘ir hayot va hayotiy tajribalar orqali shakllangan inson sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, maqolada Ayniyning o‘z asarlarini o‘z qo‘li bilan tarjima qilgani, bu esa uning ikki tilli yozuvchi sifatidagi maqomini yuksaltirgani ta’kidlanadi. Ayniy o‘zbek adabiyotida ham, tojik adabiyotida ham buyuk ijodkor sifatida qadrlanganini maqola izchil asoslab beradi.

Tadqiqotning yana bir jihati – Ayniyning bolsheviklar davriga bo‘lgan munosabati va Sovet mafkurasiga sadoqat bilan qaraganligi haqida bo‘lib, bu orqali maqola muallifi Ayniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va uning asarlarida aks etgan g‘oyalarning zamonaviy voqealar bilan qanday uzviy bog‘liqligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, yuqoridagi masalalar bizning Ayniyshunos olimlarimiz tomonidan juda kam tilga olinsa-da, bugungi davr talabi va tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish nuqtayi nazaridan alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalardan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, maqola Sadriddin Ayniy ijodiy merosini, uning ikki tilli adabiy faoliyatini, jadidchilikdagi o‘rnini va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qo‘shgan hissasini chuqur tahlil qilib, Ayniyning ikki xalq adabiyoti o‘rtasidagi “madaniy ko‘prik” vazifasini bajaruvchi adib sifatida muhimligini ilmiy asoslab beradi. Shu ma’noda, maqola o‘zining ilmiy asoslangan yondashuvi bilan Ayniyning adabiy shaxsiyatini yanada kengroq ochib beradi [Olimov, MAMER, 2021].

Darhaqiqat, Sadriddin Ayniy nafaqat tojik va o‘zbek adabiyotining yirik va ko‘zga ko‘ringan vakili sifatida, balki turkiy xalqlar o‘rtasida o‘ziga xos madaniy ko‘prik vazifasini o‘tagan betakror adib va ziyoli sifatida ham butun turk dunyosi tomonidan e‘zozlanadi, qadrlanadi va asarlari o‘rganiladi. Ayniyning o‘z asarlari orqali ilgari surgan ma’rifatparvarlik, ijtimoiy adolat, tenglik, xalq manfaatlariga oid ilg‘or va zamonaviy g‘oyalar turk adabiyotidagi ilg‘or va progressiv oqimlar bilan hamohang bo‘lib, bu ikki adabiyotning boyishiga, rivojlanishiga va yuksalishiga xizmat qildi. Ayniyning g‘oyalari va qarashlari turk adabiyotida ham o‘zining yaqqol aksini topdi va bu ikki adabiyot o‘rtasida o‘ziga xos mushtaraklik va yaqinlik vujudga kelishiga zamin yaratdi. Misol uchun, Halide Edip Adivar asarlarida ham xuddi shunday ma’rifatparvarlik g‘oyalari uchratish mumkin. Bu holat Ayniyning turk adabiyotiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Sadriddin Ayniyning o‘tkir va ta’sirchan fikrlari, hayotiy kuzatishlarga asoslangan teran va chuqur yondashuvlari, xalq tiliga yaqinligi, sodda va ravon uslubi nafaqat o‘zbek, balki turk ziyolilarining ham diqqatini tortdi va ularni hayratga soldi. Uning “Odina”, “Eski maktab”, “Esdaliklar” kabi asarlari o‘zbek va tojik adabiyotida yangi sahifa ochib, milliy adabiyotning rivojlanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Shu bilan birga, bu asarlar turk adiblari va ziyolilariga ham ilhom manbayi bo‘lib xizmat qildi, ularga o‘z jamiyatlaridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarni yangicha nigoh bilan ko‘rishga, tahlil qilishga va ularni hal etishda yangi yo‘llarni izlashga imkon berdi. Ayniyning adabiy merosi, uning insonparvarlik va milliy o‘zlikni anglash va qadrlash g‘oyalari turk dunyosida ham keng e’tirof etildi va ulug‘landi.

Bugungi kunda Sadriddin Ayniyning boy va sermahsul merosi turkiy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Uning ijodi jamiyatning murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini teran anglashga,

insoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning rivojlanishiga oid muhim masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Ayniyning ijodiy merosi turkiy xalqlar oʻrtasida madaniy hamkorlik va oʻzaro anglashuvni mustahkamlashda, ularning tarixiy va madaniy ildizlarini birlashtirishda muhim rol oʻynaydi.

Turk va oʻzbek adabiyotlari oʻrtasidagi madaniy aloqalar ayni shu boy meros asosida yangi bosqichga koʻtarilmoqda. Jadidchilik harakati taʼsirida shakllangan turkiy maʼrifatparvarlik anʼanalari Ayniyning ijodi orqali yanada boyitilib, keng tarqalmoqda. Bu esa turkiy dunyoda maʼnaviy uygʻunlik, ijtimoiy taraqqiyot va tinchlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda. Shu bois Sadridin Ayniyning adabiy merosi nafaqat milliy adabiyotlar, balki umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ham oʻrganilishi, targʻib qilinishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi lozim. Uning asarlari yoshlarga maʼnaviy tarbiya berishda, milliy oʻzlikni anglash va rivojlantirishda muhim manba boʻlib qolaveradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Sadridin Ayniy ijodi va faoliyati Markaziy Osiyo xalqlari adabiy-madaniy merosida muhim tarixiy oʻrin egallaydi. U oʻzbek va tojik xalqlari adabiyotining rivojlanishiga qoʻshgan hissasi bilan cheklanib qolmay, turkiy dunyoning umummadaniy qadriyatlari rivojida ham yetakchi rol oʻynaydi.

Ushbu maqolada Sadridin Ayniy ijodining ikki asosiy jihati ilmiy jihatdan mukammal tahlil etishga harakat qildik: birinchisi, uning jadidchilik harakatidagi faol ishtiroki va milliy uygʻonish, ilm-maʼrifatga intilish gʻoyalari xalq orasiga olib kirishdagi xizmatlari; ikkinchisi, ikki tilli (zullisonayn) yozuvchi sifatida oʻzbek va tojik xalqlari madaniyatini bogʻlab, turkiy dunyo bilan uzviy hamkorlik qilgani.

Ayniy nafaqat tojik adabiyotining, balki oʻzbek adabiyotining ham badiiy taraqqiyotida yuksak maʼnaviy oʻringa ega boʻlib, oʻzbek va tojik xalqlarining doʻstligini mustahkamlovchi buyuk ijodkordir.

Sadridin Ayniy tomonidan ilgari surilgan milliy maʼrifatparvarlik, ijtimoiy adolat, tenglik va taraqqiyot gʻoyalari bugungi kun uchun ham oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning maʼnaviy merosi nafaqat tarixiy manba sifatida, balki ilmiy-amaliy tadqiqotlar va zamonaviy adabiyot uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, uning asarlaridagi realistik tasvirlar, xalqchil tili va umuminsoniy qadriyatlarga urgʻu berilishi hozirgi yosh avlod uchun ilmiy-maʼrifiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniy ijodining eng muhim natijalaridan biri turkiy dunyo adabiyotlari oʻrtasida uzviy hamkorlik va madaniy koʻprikni yanada mustahkamlashga xizmat qilganligidir. Bu jihatdan uning asarlari bugungi kunda ham turkiy xalqlar orasida ilmiy, madaniy, adabiy va ijtimoiy sohalarda oʻzaro hamkorlik va uygʻunlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos vazifasini bajarimoqda.

Bugungi zamonaviy adabiyot va ilm-fan sohasida ham Ayniy ijodining oʻrganilishi, uning gʻoyalari va uslublarining tadqiq etilishi yangi avlod olimlari va tadqiqotchilari oldida katta vazifa boʻlib turibdi. Ayniqsa, uning ikki tilli ijodkor sifatida erishgan yutuqlari koʻpmillatli va koʻp madaniyatli jamiyatlar uchun namuna vazifasini bajarishi mumkin. Uning ilmiy va publitsistik merosi tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va sotsiologlar tomonidan chuqur tadqiq qilinib, jamiyatning zamonaviy muammolariga yechim izlashda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Sadridin Ayniy – turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti oʻrtasida mustahkam koʻprik vazifasini bajaruvchi buyuk adib va maʼrifatparvar shaxsdir. Uning ijodi nafaqat Oʻzbekiston va Tojikiston hududida, balki butun turkiy dunyo madaniy hayotida chuqur taʼsir qoldirdi. Ayniy

yoʻzuvchi, jamoat arbobi, maʼrifatparvar, olim va ijtimoiy faollarning biri sifatida tanilgan shaxslardandir. Uning asarlarida ilm-maʼrifat, ijtimoiy tenglik, adolat, ayollar huquqlari va xalqning umumiy manfaatlarini kabi fundamental gʻoyalar keng yoritilgan. Ushbu gʻoyalar oʻz zamonida oʻzbek va tojik jamiyatlarida yangicha qarashlar va harakatlarni shakllantirishga xizmat qilgan, shu bilan birga, ularning turkiy dunyo madaniyati va adabiyotidagi oʻrni, oʻziga xos uygʻunligi va olamshumul jihatlari ham yaqqol namoyon boʻladi. Sadriddin Ayniyni ilmiy va badiiy merosi turkiy xalqlar oʻrtasidagi madaniy almashinuvni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etdi. Uning sermahsul ijodi asrlar davomida shakllangan turkiy madaniyatining boy anʼanalarini saqlab qolish, yangi maʼrifiy gʻoyalarni targʻib qilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshish yoʻlida muhim qadam boʻldi. Ayniy oʻzining ilmiy va badiiy asarlari orqali xalqning tarixiy, maʼnaviy, ijtimoiy muammolarini teran yoritib, ularni keng jamoatchilikka yetkazishga harakat qildi. Shu nuqtayi nazardan ham, Ayniy ijodining Turkiya ilmiy-adabiy muhitidagi bir qator olimlar tomonidan keng oʻrganilmoqda.

Yuqorida sanab oʻtganimizdek, bugungi kunda Turkiya universitetlari va ilmiy jurnallarida Ayniy ijodi haqida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tadqiqotchilar Turgay Şafak, Mehmet Ali Özkan va Shoxruxbek Olimov tomonidan Ayniy ijodiga bagʻishlangan maqolalar uning turk adabiyoti va madaniyati uchun ham katta ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi. Ushbu tadqiqotlarda Ayniy Markaziy Osiyo adabiyoti bilan bir qatorda turk dunyosining umumiy madaniy-maʼnaviy qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol oʻynagan ijodkor sifatida yuksak baholangan. Ayniy ijodining Turkiyada faol oʻrganilishi va keng eʼtirof etilishi uning umuminsoniy gʻoyalari va turkiy xalqlar oʻrtasidagi madaniy uygʻunlikni rivojlantirishdagi ahamiyatidan dalolat beradi. Bu tadqiqotlar turk ilmiy-adabiy muhitida yangi ilmiy-ijodiy yoʻnalishlarni shakllantirishga imkon yaratmoqda. Demak, Ayniyni ijodi va faoliyati turk ilm-fani va adabiyotida hozirgi kunda ham dolzarbligini yoʻqotmagan holda, yangi avlod olimlari uchun tadqiqot obyekti boʻlib qolmoqda. Bu esa uning merosi faqatgina Markaziy Osiyo doirasida qolmay, balki xalqaro miqyosda ham yuksak qadrlanayotganligini koʻrsatadi.

Umauman olganda, Sadriddin Ayniy ijodini chuqur oʻrganish, uning serqirra va boy merosini yanada keng targʻib qilish orqali biz nafaqat tarixiy oʻtmishimizni teran anglab yetamiz, balki kelajak uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratamiz. Ayniy asarlari va faoliyatini oʻrganish orqali yosh avlodni ilm-maʼrifatga chorlash, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarni tarqatish imkoniyatiga ega boʻlamiz.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Olimov Shokhruxbek. Züllisaneyn (iki dilli) yazar Sadrettin Ayni (1878-1954). // MAMER – Merkezi Asya Araştırmalar Merkezi saytı. 2021. (https://mamer.info/zullisaneyn-iki-dilli-yazar-sadrettin-ayni/#_ftn1)
2. Olimov Shokhruxbek. Züllisaneyn (iki dilli) yazar Sadrettin Ayni (1878–1954). // 2022. <https://www.tarihistan.org/zullisaneyn-iki-dilli-yazar-sadrettin-ayni-1878-1954/26405/>
3. Sadreddin Aynî'nin Hayatı ve Eserlerine Bir Bakış (M. A. Özkan, çev.). // Nüsha, 24 (58), 2024. – S. 130-156. <https://doi.org/10.32330/nusha.1461434>
4. Şafak T. Modern tacik edebiyatinin kurucusu Sadreddin Aynî: hayati eserleri ve düşüncesi. // Nüsha. 23 (57), 2023. – S. 1-19. <https://doi.org/10.32330/nusha.1354916>
5. Toxirova S. Study of Aini's works in Europe. // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva. 2022. – B. 276–280.
6. Айни С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Адиб, 2010. В. 448.
7. Айний С. Бехбудий ҳазратлари тўғрисида хотираларим. // Зарафшон. 1922 йил, 32-сон, 25 март. (Айни С. Мои воспоминания о его светлости Бехбуди. // Зерафшан. 1922

год, № 32, 25 марта. / Aini S. My recollections of his lordship Behbudi. // Zerafshan. 1922, № 32, March 25.)

8. Айний С. Туркистон бойлиги. // Турк эли. 1917, 4 октябрь. (Айни С. Богатство Туркестана. // Турк эли. 1917, 4 октября. / Aini S. The Wealth of Turkestan. // Turk eli. 1917, 4 October).

9. 10. Раҳмонзода Абдуджабор. Устод Айний идомадихандаи равобити адабию фарҳангии тоҷикон ва ўзбекҳо. // Вестник Педагогического университета. 2018. №1 (73). <https://cyberleninka.ru/article/n/s-aini-as-a-continuer-of-tajik-uzbek-literature-and-cultural-relationships>

10. Xasanov A. O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida Sadriddin Ayniy asarlarining o‘rganilishi // Sadriddin Ayniy “Sudxo’rning o‘limi” povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili. Filol. fan. b. fal. dok. (PhD)... diss. – Samarqand, 2024. – 140 b.

11. <https://jadidlar.uz/jadidlar/25>

12. آزیتا همدانی , مسعود حسینی پور. نگاهی به زندگی و آثار صدرالدین عینی. آینه میراث دوره 12 پاییز و زمستان 1393 شماره 2 (پیاپی 55)

<https://ensani.ir/fa/article/499908/%D9%86%DA%AF%D8%A7%D9%87%DB%8C-%D8%A8%D9%87-%D8%B2%D9%86%D8%AF%DA%AF%DB%8C-%D9%88-%D8%A2%D8%AB%D8%A7%D8%B1-%D8%B5%D8%AF%D8%B1%D8%A7%D9%84%D8%AF%DB%8C%D9%86-%D8%B9%DB%8C%D9%86%DB%8C>

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article is presented on 8-10 pages;
- Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
- Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages.
- The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
- Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
- Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
- Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilmfanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o’tkazilgan sammitida ko’zda tutilgan o’zaro aloqalarni jadallashtirish bo’yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O’zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.



JURNAL QUYIDAGI YO’NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
- 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
- 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
- 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
- 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
- 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
- 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
- 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
- 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snokalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
- Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и снизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа A4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
- Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvari, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütun olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatta hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmelidir.
- Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

**ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2025-yil 23-iyunda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 27-iyunda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı –12.5.

Adadı 15 nusxa. Buyurtma № 318

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229



9 772992 922004